

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 268 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTIONAL MECHANISMS, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MECHANISMS TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MECHANISMS	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фариди Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	



ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Salayeva Dilafroʻz Aybekovna

Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti

Magistratura talabasi

Email: dilafruzsalayeva12@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning zamonaviy sharoitdagi oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt, katta hajmdagi maʼlumotlar hamda raqamli platformalarning iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi, sanoat, xizmatlar sohasi va taʼlim tizimiga taʼsiri yoritiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hamda iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash masalalari koʻrib chiqiladi. Maqolada raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, institutsional muhitni mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlashning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, Big Data, sunʼiy intellekt, raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar.

Abstract. This paper examines the role and significance of the digital economy in the context of modern economic development. It analyzes the impact of digital technologies, artificial intelligence, big data, and digital platforms on economic sectors, public administration, industry, services, and the education system. Particular attention is paid to the efficient use of resources, improvement of management processes, and ensuring economic sustainability in the context of digital transformation. The relevance of developing digital infrastructure, strengthening the institutional environment, and training human capital that meets the requirements of the digital economy is substantiated.

Keywords: digital economy, digital transformation, digital technologies, Big Data, artificial intelligence, digital infrastructure, electronic services.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение цифровой экономики в условиях современного экономического развития. Рассматривается влияние цифровых технологий, искусственного интеллекта, больших данных и цифровых платформ на отрасли экономики, систему государственного управления, промышленность, сферу услуг и систему образования. Особое внимание уделяется вопросам эффективного использования ресурсов, совершенствования управленческих процессов и обеспечения экономической устойчивости в условиях цифровой трансформации. Обоснована актуальность развития цифровой инфраструктуры, укрепления институциональной среды и подготовки кадров, соответствующих требованиям цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, цифровые технологии, Big Data, искусственный интеллект, цифровая инфраструктура, электронные услуги.

KIRISH

“Bugungi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi sharoitida raqamli iqtisodiyot iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylanmoqda” [1]. Raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga chuqur kirib borishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot asosiy resursga aylanib, iqtisodiy subyektlar faoliyatida tezkorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston misolida ham raqamli transformatsiya jarayoni davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga oʻtish yaqin yillardagi eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilanishi bejiz emas. Bu, avvalo, milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvi, innovatsion rivojlanish va barqaror oʻsishni taʼminlash bilan bogʻliqdir. Taʼkidlanganidek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, iqtisodiy taraqqiyotning yuqori surʼatlariga erishish mushkul.

Shu nuqtayi nazardan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" konsepsiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning strategik asoslarini belgilab beradi. Mazkur konsepsiya doirasida davlat boshqaruvi, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda xizmatlar sohasida raqamli yechimlarni bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilgan. Ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirish va fuqarolarning raqamli ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekistonda iqtisodiy modernizatsiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralib, innovatsion yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar hamda bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi. Ushbu jarayonning izchil va muvozanatli amalga oshirilishi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda texnologik taraqqiyot yangi ixtirolar va kashfiyotlar orqali iqtisodiyotda sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirishi ta'kidlanadi [2]. Texnologik rivojlanishning iqtisodiy tizimga ta'siri zamonaviy tadqiqotlarda muhim ilmiy muammo sifatida qaralib, ayrim olimlar tomonidan 2010–2020-yillar oralig'i VI texnologik rejimga o'tish davri sifatida talqin qilinadi. Ushbu bosqich nano-, bio-, axborot va kognitiv texnologiyalarning uyg'unlashuvi bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmatlar sohalarida yangi yondashuvlarning shakllanishiga olib kelgan.

VI texnologik rejim sharoitida innovatsion jarayonlar nafaqat texnik vositalarning takomillashuvi, balki bilim, intellektual salohiyat va inson kapitalining rolini kuchaytirishi bilan ham izohlanadi. Natijada raqamlashtirish, avtomatlashtirish hamda sun'iy intellektga asoslangan yechimlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida keng qo'llanila boshlaydi. Bu jarayonlar mehnat bozori tuzilmasining yangilanishi, yangi kasblar va kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Ayrim tadqiqotlarda pandemiya sharoitida raqamli transformatsiya iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida baholanadi [8]. Pandemiya davrida raqamli texnologiyalar masofaviy ish, elektron savdo va onlayn xizmatlar orqali iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlab, iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liq ekanini ilmiy manbalarda qayd etiladi [9]. Raqamli yechimlar boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini kengaytiradi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalar hamda katta hajmdagi ma'lumotlarga tayangan holda biznes jarayonlari samaradorligini oshirishi bilan tavsiflanadi [12]. Big Data, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning qo'llanilishi qarorlar qabul qilish jarayonining tezkorligi va asoslanganligini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, mahalliy olimlar tomonidan ham raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiya masalalari keng tadqiq etilmoqda. Xususan, Jo'rayeva S. B. [5] O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asoslari va raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini yoritadi. Ismailov X. M., Jibanbekov X. R. va Tojiboyev F. H. [4] tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek, Ochilov A. O. [9] xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalar va elektron tijoratni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiyaning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini hamda uning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy-tahliliy yondashuv yordamida raqamli iqtisodiyotga oid turli ilmiy qarashlar, nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar o'zaro solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish usuli orqali mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda strategik dasturlar o'rganilib, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil qilindi. Umumlashtirish usuli esa olingan nazariy va amaliy natijalarni yagona tizimga keltirish, asosiy xulosalar va ilmiy mulohazalarni shakllantirish imkonini berdi.

Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlarida samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi omillarni baholashga zamin yaratdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar shaffoflikni oshirib, boshqaruv va moliyaviy jarayonlarda inson omilining salbiy ta'sirini kamaytiradi. Elektron monitoring mexanizmlaridan foydalanish ochiqlikni ta'minlab, korrupsiya xavfini kamaytirishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot innovatsion yechimlarga tayangan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, biznes muhitini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi yetakchi tarmoqlardan biriga aylanib, elektron tijorat va raqamli xizmatlarning rivojlanishi orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqda [9]. Elektron tijorat, raqamli moliyaviy xizmatlar va onlayn platformalarning kengayishi bozor aloqalarini faollashtirib, xizmatlar sifati va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi hududiy cheklovlarni kamaytirib, mahsulot va xizmatlarning keng auditoriyaga chiqishini ta'minlaydi. Raqamli platformalar, ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, raqobat muhitini rivojlantiradi. Natijada xizmatlar sifati oshib, bozorda ochiqlik kuchayadi.

Elektron tijorat va raqamli xizmatlarning rivojlanishi bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatib, yangi raqamli kasblar va masofaviy ish shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bu holat mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirib, aholi daromadlarining o'sishiga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida cheklangan resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Sanoatda raqamli texnologiyalar (ERP, IoT, Big Data va sun'iy intellekt) ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlab, resurslar sarfini kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Investitsiya resurslarining yetarli emasligi raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion loyihalarni keng joriy etish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, raqamli texnologiyalarning yuqori boshlang'ich xarajatlarini hisobga olgan holda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik hamda rivojlangan institutsional muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'lim jarayoni zamonaviy kompetensiyalarga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni, innovatsion o'qitish usullari va raqamli infratuzilmaga asoslanadi [3]. Ushbu komponentlarning oliy ta'lim tizimida uyg'unlashuvi raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish hamda talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ta'lim sifati o'qitish jarayonining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va baholash tizimining samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir [6]. Zamonaviy ta'lim tizimida sifat bilimlarning amaliy qo'llanilishi, tahliliy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

Ta'lim sifatini yaxshilashda o'qituvchilarning kasbiy malakasi va doimiy rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Malaka oshirish dasturlari va ta'lim jarayonini monitoring qilish mexanizmlari raqamli iqtisodiyot talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi va hududlarni raqamlashtirish, elektron xizmatlarni joriy etish hamda idoralararo ma'lumot almashuvini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda [10]. Ushbu chora-tadbirlar xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish bilan birga, raqamli transformatsiyani baholash va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLARS

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida barcha soha va tarmoqlarda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar va raqamli platformalarning joriy etilishi iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, investitsiya resurslari va malakali kadrlar ta'minoti raqamli transformatsiyaning muhim shartlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat institutsional muhitni takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, texnologik yangilanish, samarali boshqaruv, sifatli ta'lim va mustahkam institutsional asoslarning uyg'un rivoji mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, barqaror o'sishni ta'minlash va raqamli jamiyatni shakllantirish uchun muhim shart sifatida baholanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullajonov D. Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotning istiqbollari // *Ekonomika i sotsium*. 2021. № 12-1 (91). B. 28–33.
2. Akhunova M. Kh. Pandemiyaning dunyodagi innovatsiyalar rivojlanishiga ta'siri // *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*. 2022. № 2. B. 15–22.
3. Aminova S. A., Boboyeva D. Talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning tutgan o'rni // *CARJIS*. 2022. № 4. B. 146–148.
4. Ismailov X. M., Jiyanbekov X. R., Tojiboyev F. H. Iqtisodiy tizimlarning rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning ta'siri // *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*. 2023. B. 87–94.
5. Jo'rayeva S. B. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish // *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*. 2023. № 3. B. 49–56.
6. Kosimova M. Ya. Talabalarning ta'lim sifatini oshirishda fanlararo uzviylikdan foydalanish // *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*. 2022. № 2. B. 57–64.
7. Kurpayanidi K. I. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. 2021. № 1. B. 309–315.
8. Mallaboyev N. M., Nazarova S. Sh., Nazarov I. A. O'. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari // *Mexanika i texnologiya*. 2022. Maxsus son 1. B. 174–182.
9. Ochilov A. O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo'llari // *XXI asr: fan va ta'lim masalalari*. 2024. № 2. B. 24–34.
10. Olimov O. O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirish masalalari // *Raqamli iqtisodiyot*. 11-son. B. 1225–1232.
11. Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari, amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba // *Academic research in educational sciences*. 2022. № 5. B. 151–156.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100